

## **“CODO IT” MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATIGA TEGISHLI <https://idonate.uz> PLATFORMASIDA TO‘LOV SHARTLARI**

1. “CODO IT” Mas’uliyati cheklangan jamiyatiga tegishli <https://idonate.uz> veb-sayti bundan keyingi o‘rinlarda ID platformasi deb ataladi.
2. Ushbu to‘lov shartlari Ommaviy oferta shartnomasida ko‘rsatilganidek, Foydalanuvchilardan xayriyalarni qabul qilish va keyinchalik xayriyalarni Streamerga o‘tkazish xizmatini taqdim etish tartibini belgilaydi. Mazkur to‘lov shartlari Ommaviy oferta shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.
3. Xayriyalarni qabul qilish va pul o‘tkazmalarini amalga oshirish uchun to‘lov ID platformasi Operatorida saqlanadi va o‘tkazma komissiyasi shaklida belgilanadi, uning miqdori va to‘lov usuli mazkur to‘lov shartlarida hamda Ommaviy oferta shartnomasida belgilanadi.
4. Operator tomonidan undiriladigan maksimal komissiyalar va limitlar haqidagi ma’lumotlar Foydalanuvchiga ushbu to‘lov shartlarida nazarda tutilgan ID platformasi orqali yetkaziladi.
5. Haqiqiy to‘langan komissiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar Foydalanuvchi uchun uning ID platformasidagi Hisobida ko‘rsatiladi.
6. ID platformasida Operator Foydalanuvchilardan xayriyalarni yig‘ish va agentning to‘lovi miqdorini chegirib tashlagandan so‘ng ularni Streamer(lar)ga o‘tkazish bo‘yicha bir qator tashkiliy-texnik tadbirlarni amalga oshiradi.
7. Xayriyalarni qabul qilish uchun Agentning to‘lovi miqdori qat’iy belgilangan va xayriya miqdorining 3 % ni tashkil qiladi va har bir Xayriyadan yechib olinadi.
8. **Bundan tashqari, komissiyalar to‘lov tizimlari tomonidan olinishi mumkin va ushbu to‘lov shartlarining ajralmas qismi hisoblangan Ilovada ko‘rsatiladi.**

9. ID platformasida Operator Streamer(lar)ni keyinchalik mazkur platformada xabardor qilgan holda Agent to'lovi miqdorini o'zgartirishga haqli. ID platformasida Operator komissiyasini o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

10. Ushbu shartlar bo'yicha To'lov deb qabul qilingan Xayriyalarni bank kartasiga, elektron hamyonga yoki Streamer(lar)ning boshqa rekvizitlariga o'tkazish bo'yicha operatsiya hisoblanadi.

11. Ushbu shartlar bo'yicha ID platformasidagi Operatorning balansi deb Foydalanuvchilardan Xayriyalarni qabul qilishni tashkil qilish uchun ID platformasidagi to'lovni qabul qilish xizmati hisoblanadi.

12. Xayriya yuborish uchun Foydalanuvchi ID platformasidagi to'lov sahifasida Xayriya miqdorini tanlashi kerak. Xayriya miqdorini tanlagandan so'ng, foydalanuvchi to'lovni amalga oshirish uchun To'lov xizmatining maxsus sahifasiga yo'naltiriladi. To'lov xizmatiga o'tishda Xayriya miqdori Xayriyani to'lash bo'yicha operatsiyani bajarish uchun To'lov xizmati komissiyasi miqdoriga oshirilishi mumkin. To'lov xizmati komissiyasi Foydalanuvchi tomonidan tanlangan to'lov tizimlari, to'lov usuli, to'lov xizmati siyosati va boshqa omillarga bog'liq.

13. To'lovni Streamer(lar)ga amalga oshirishda to'lov summasidan pul mablag'larini o'tkazishni amalga oshiruvchi to'lov xizmatidan komissiya yechib olinishi mumkin. Har bir to'lov usuli uchun to'lov xizmati komissiyasining joriy miqdori to'lov so'rovi bosqichida hamda mazkur shartnomaning Ilovasidagi 2-jadvalda ko'rsatiladi.

14. ID platformasi operatori firibgarlik yoli boshqa noqonuniy harakatlarning oldini olish maqsadida Foydalanuvchidan har qanday Xayriya yig'ish va/yoki ularni keyinchalik Streamer(lar)ga topshirishni zarur muddatga kechiktirish va/yoki bekor qilish huquqiga ega.

15. Foydalanuvchi tomonidan to'lov amalga oshirilgandan so'ng to'lov texnik sabablar bilan Streamer(lar)ga namoyon bo'lmasa Operator bir kun ichida Xayriyani Foydalanuvchiga qaytarishga haqli. Bunday holda, Jamiyat balansidan Agentning mukofoti miqdoriga kamaytirilgan Xayriya miqdoriga teng miqdor

yechib olinadi. Boshqa har qanday holatda Xayriyalar yuborilganidan keyin ularni qaytarish mumkin emas.

16. Foydalanuvchi Xayriya to'lovlarining o'tkazilishi ustidan shikoyat qilish huquqiga ega. Agar bunday shikoyat to'lov amalga oshirilgan kalendar kuni tugaganidan keyin berilgan bo'lsa, ID platformasi operatori Foydalanuvchining shikoyatini avtomatik ravishda rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

**“CODO IT” MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATIGA TEGISHLI**  
**<https://idonate.uz> PLATFORMASIDA TO‘LOV SHARTLARIGA ILOVA**

Agentlik to‘lovi miqdori quyidagi to‘lov usuliga muvofiq hisoblab chiqiladi:

**1-jadval**

<b>To‘lov usuli</b>	<b>Foiz miqdori</b>	<b>Agentlik to‘lovi miqdori</b>	<b>Jami</b>
Uzcard / Humo	2 %	3 %	5 %
VISA	3.5 %		6.5 %
Master CARD	3.5 %		6.5 %

Streamer(lar) 1-jadvalga muvofiq Agentlik va to‘lov tizimlari fozi chegirib tashlangan holda xayriyalarni olish uchun mavjud to‘lov usulini tanlashi mumkin.

Quyidagi 2-jadvalda ko‘rsatilganidek, **Streamer(lar)ga xayriyalarni o‘tkazish uchun komissiya olinadi.**

**2-jadval**

<b>To‘lov usuli</b>	<b>Komissiya foizi miqdori</b>
Payment system platform (PSP.UZ)	2 %